



“BOQIY DARBADAR” ROMANIDA MA’NAVIYAT MASALASI

Eshpo’latova Kamola Abdijalilovna

Filologiya fakulteti, O'zbek tiliva adabiyoti II bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5594988>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 10-oktabr 2021
Ma’qullandi: 20-oktabr 2021
Chop etildi: 25-oktabr 2021

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada yozuvchi Isajon Sultonning “Boqiy darbadar” romanidagi ma’naviyat masalasi tadqiq qilingan.

KALIT SO‘ZLAR

roman, istiqlol, jahon adabiyoti, obraz, personaj, ma’naviyat, muvozanat, ruhiyat.

So’nggi davr romanchiligi mavzuning badiiy talqini, odamning orzu-umidlari, shaxsning ichki sezimlari, kechinmalari, psixologiyasini tahlil qilish sari bormoqda. Odamlarda o’zlikni anlashga intilish tuyg’usi ustun. Intellektual salohiyati yetuk, poetik tafakkur miqyosi keng, insoniyat uchun global muammo nima degan savolga javob izlayotgan, shu yo’nalishda asarlar yozayotgan yozuvchilarimizdan biri Isajon Sultondir.

Haqiqiy ma’nodagi talant sohibi nafaqat o’z xalqining, balki butun bashariyatning dardini o’ylaydi. U yer yuzining har bir nuqtasida tinchlik, adolat, muvozanat hukm surishini xohlaydi. Millatidan qat’iy nazar, barcha asl iste’dodlar bir nuqtada birlashadilar: bu nuqta–umuminsoniy manfaatlar, dardlar

kesishgan nuqta. Shu ma’noda, iste’dodli nosir Isajon Sulton “Boqiy darbadar” romanida bu dunyoning o’tkinchiligi, imon-e’tiqod va insoniylik, mehr-muhabbat va vatan tuyg’usi kabi umumbashariy qadriyatlarni o’quvchi tafakkuriga singdirishni bosh maqsad deb biladi.

“Boqiy darbadar” romani hajman katta emas. Ammo unda fikrlar, g’oyalar, tasavvurlar, kishini o’yga toldiruvchi savollar mo’l. Dunyoning yaratuvchisi yagona Olloh. Ammo Olloh yaratgan bandalar o’zligini unutib, Uning izmiga qarshi borishga jur’at qilishgacha boradilar. Romanda sun’iy odam yaratish muammosi atrofida bahs-munozaralar kechadi. Odam butun olamga hukmronlik qilish istagida yashirin ilmiy markazlarda sun’iy insonni yaratmoqchi bo’ladi. Laboratoriyalardagi klonlashni gunoh deb bilgan barhayot kishi u



yerdan qochib, mangu darbadarga aylanadi. Sun'iy odam yaratishni o'lohgga qarshi borish deb tushunadi. Adib bu orqali kitobxonlarga olamning va odamlarning qanday maqsadda yaratilgani haqida ma'lumot beradi va tog'da, g'orda yakka-yolg'iz yashaydigan aziz-avliyo oldiga to qiyomat kuniga qadar yer yuzida betinim daydisha mahkum va qiladigan ishi hech narsa bo'lgan. Boqiy darbadar kelgani, undan mo'jiza ko'rsatishini, agar ko'rsatmasa, o'ldirishini aytib qo'rqitganligini tasvirlaydi. Yozuvchi avliyo tili bilan Yaratganning buyuk aql-idroki, bitmas-tuganmas qudrati haqida shunday deydi: " Sen o'zing dunyoda nima istashingni bilmasang, men bechora banda qayerdan ham bilayin,-deydi Avliyo.-Qara, olamda hama narsa mukammal bir tartib bilan harakatlanib turibdi. Bahorda yerdan turli-tuman nabotot unib chiqadi... Shuncha nabototning unib chiqishi uchun kerak bo'lgan suvni... bulutlar olib kleib yog'dirsa, hatto sen qudratini ko'rib hayratlanishing yoki eski tuproqlarni... boshqa joyga o'g'it bo'lishi uchun... bo'ronlar essa, sellar oqsa... Quyosh keragicha qizdirsa, dov-daraxtu o't-o'lanning changlanishi uchun qancha asalari va hasharot kerak bo'lsa, shuchasi yaratilsa-yu yana bol ham to'plasa... bir nabotot o'zining unib-o'sishidan tashqari yo yemish, yo davo bo'lsa...va faqat sngina bularning hammasidan yeb foydalansan-u hosilang bo'lmasa... ustiga ustak, shu holingda yana mo'jiza talab qilsang..."[1.10] Avliyoning bu gaplari hammani chuqur o'yga toldirishi, shubhasiz. Haqiqiy asarda muallif hammani o'ylatuvchi savol qo'ya oladi. Bu muallifning mahoratidan darak beradi. Rostdan ham dunyo mukammal yaratilgan. Shunchalar mukammalki, hech narsa Ollahning iznisiz ro'y bermaydi. Musibat, muhabbat, tug'ilish, o'lim...texnikaning aql bovar qilmas kashfiyotlari: qo'l telefonlari, planshetlar, internet va hokazolarni aytaylik. Olam sir-

sinoatga to'la. O'zini olamning mutloq xo'jayini deb o'ylagan odam, aslida o'jiz bir bandadir. Insonning ruhiy olamidagi sir-sinoatlar hali javobi topilmagan, yechilmagan savollardir.

Romanda sun'iy, abadiy yashaydigan odamni yaratishning ilmiy jarayonlari ba'zan realistik, ba'zan fantastik, ba'zan esa diniy tasvirlar orqali ochib berilgan. Muallif genetik olim Georg Mendel tilidan shunday deydi: " Tabiiyki, havo mavjud bo'lmagan joylarda, suv ostida, kuchli nurlanishlarda, vulqonlarning tublarida bemalol ishlay oladigan... bir nasl bunyod etilsa, insoniyatning ko'p mushkullari yengillashgan bo'lar edi. Masalaning estetik tomonlarini ham hal qilishimiz lozim... Bu jonzotlarga.. tajriba materiali deb qaraymizmi yoxud inson debmi? Tadqiqotlarimiz yangi, barhayot nasl olish yo'lidagi zahmatlar sifatida olqishlanadimi yoki insoniyat ustidan o'tkazilgan g'ayriinsoniy tajribalar deb la'natlanadimi- bu savol ham ochiq qolmoqda..."[1.17]

Muallifning personaj tilidan aytgan fikrlari asosli, klonlashtirish haqida jahon olimlarining qarashlari ma'lum. Din vakillari bunga jiddiy e'tiroz bildirmoqdalar. Fan-texnika taraqqiyoti yutuqlari inson kamolotiga, jamiyat taraqqiyotiga, ezgulikka xizmat qilishi darkor. Aslo inson ma'naviyatini zabunlashishiga, inqirozga sababchi bo'lmasligi kerak. Taniqli adabiyotshunos olim Nazar Eshonqulning fikricha: "Dunyo buyuk evrilishlar palalsiga qadam qo'ydi: bu evrilish kompyuter davri deb nom oldi. Telekommunikatsiya va yangi davr chiplari shu paytgacha mavjud bo'lgan tushuncha hamda tasavvurlarni o'zgartirib yubormoqda. Afsuski, shu o'zgarayotgan



tushunchalar ichida did va madaniyat ham bor". [2.24] Romandagi professor Ziyo bu masalaga shunday fikr bildiradi: "...Yana bir qancha vaqt o'tgach, dunyoda na vatan, na millat va na til tushunchasi qoladi, degan bashorat nahotki haq bo'lsa? Bu jarayon balki allaqachon boshlanib ulgurandir? Arab davlatlari ham, Yevropa ham birlashdi. Yana qancha vaqt o'tib ro'y beradigan iqtisodiy va axborot xurujlaridan keyin mamlakatning chegaralari yo'qolib, boshqarish iplari to'g'ridan-to'g'ri capital qo'liga o'tsa, yer yuzini qit'alararo shirkatlar boshqarsa-chi? Haqiqiy golballashuv ana shunda avj olsa, qayerda iqtisod gullab-yashnasa, o'sha yerga odamlar to'plana boshlasa... va vaqt-soati kelib, qadriyatlar yemirilib tamom bo'lsa-chi?" [1.23] bu kabi tashvishli o'ylar barcha ziyolilarni xavotirga soladi.

Asarda professor Ziyoning o'gli nihoyatda teran fikrga ega obraz. Uning fikrlashlarida vatanga, millatga, qadriyatlarga sodiq asl o'g'lonni ko'ramiz. U shu vatanda tug'ilganidan, shu elning farzandi ekanligidan, ajdodlari merosiga voris ekanidan cheksiz faxr tuyadi. Taqdiriga shukrona aytib, vataniga xizmat qilishini bildiradi. Uning elektron maktubida keltirilgan so'zlarini o'qib, professor ham o'g'lining tanlagan yo'li eng to'g'ri yo'l ekanini tan oladi. Romanning "Avlod" deb nomlangan faslida bu kabi fikrlarning keltirilishi ham muallifning tanlagan yo'li deyishimiz mumkin. Oллоh olamni shunchalik mahorat, did, zargarlik bilan mukammal qilib yaratgan ekan unga

qarshi borish nimaga va kimga kerak? Inson bolasini boylik baxtli qilganida, yer yuzidagi barcha boylar o'zini baxtli his qilgan edilar. "Baxt-boylukda, desangiz hamma baxtsiz. Chunki, aqliga ko'p narsa kerak emas, axmoq esa baribir to'ymaydi" [2.14] Darhaqiqat, shunday. Dunyoni zabt etgan olamgirlarning yakunini eslang. Iskandarning ochiq ketgan qo'llari-yu, Boburning ko'z yoshlari bizga jiddiy va achchiq saboq bo'ladi. Professor Ziyoning o'gli hozirgi kunda ba'zi kimsalarning insonga butun yer yuzi vatan qilib berilgan, istagan joyida yashasin, istagan joyiga borsin yoki qaerda yashash qulay bo'lsa o'sha yerga borib yashash kerak, degan qarashlariga mutlaqo qarshi fikrda. Uningcha, inson bolasi vatansiz ahamiyat kasb etolmaydi yoki millatning ruhi yo'q bo'lib ketmasligi kerak, degan fikrda ekanligi yaxshi. Asarda qator savollar qo'yilgan, javob esa imkondan tashqarida, zero, "Chinakam badiiy asar hamma vaqt javobsiz savoldir".[3.3] Aslida, professor Ziyoning o'g'li aytgan tevaragimizdagi ramzlar, timsollarni to'g'ri anglay olayapmizmi? Imonimiz sustlashmayaptimi? Qalb ko'zimiz ochiqmi? Farzandlarimizga to'g'ri tarbiya beryapmizmi? Vatan degan oliy tushunchani ularning ruhiga singdiryapmizmi? Texnika yutuqlaridan oqilona, ezgulik yo'lida foydalanyapmizmi?

Isajon Sultonning mazkur romani o'quvchini ana shunday mushohadalarga chorlaydi, ruhiyatini taftish qiladi, olam va odam munosabatlarida muvozanat bo'lishi kerakligidan ogoh etadi.



References:

1. Isajon Sul-ton. Boqiy darbadar. www.ziyouz.com kutubxonasi.
2. Nazar Eshonqul. Mendan "men" gacha. Toshkent, "Akademnashr", 2014.
3. Асқад Мухтор. Уйқу қочганда (Тундаликлар). – Т.: Маънавият, 1997. – Б. 31.